



## FONETIK USLUBIYAT

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti dotsent*

*Usmonov Farxodbek Faxriddinovich, Filologiya fakulteti talabasi*

*Abdullayeva Laylo Rasuljon qizi*

[Abdullayevalaylo412@gmail.com](mailto:Abdullayevalaylo412@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fonetik uslubiyat tushunchasi, turlari va badiiy matndagi o'rni yoritilgan. Til vositalari orasida fonetik uslubiyatning estetik ifoda yaratishdagi ahamiyati hamda adabiy asarlarda muallif uslubini aniqlashdagi roli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Uslubiyat, fonetika, alliteratsiya, assonans, tovush, talaffuz, she'riy nutq, ibora, izohli lug'at, qo'sh undosh.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие фонетического стилистического средства, его виды и роль в художественном тексте. Особое внимание уделяется эстетической функции фонетических средств и их значению в раскрытии авторского стиля.

**Ключевые слова:** Методология, фонетика, аллитерация, ассонанс, звук, произношение, поэтическая речь, фраза, толковый словарь, двойной согласный.

**Annotation:** This article explores the concept of phonetic stylistic devices, their types, and their role in literary texts. The aesthetic function of phonetic means and their importance in identifying the author's style are emphasized.

**Kalit so'zlar:** Methodology, phonetics, alliteration, assonance, sound, pronunciation, poetic speech, phrase, explanatory dictionary, double consonant.

Tilning ifoda imkoniyatlari juda keng. Uslubiyat esa shu imkoniyatlar orasida muallifning o'ziga xos nutqiy uslubini yaratishga xizmat qiladi. Fonetika bilan uslubiyatni uzviy bog'liqligi orqali fonetik birliklarning cheksiz imkoniyatlari aks



etadi. Fonetik uslubiyat - bu tovush vositalari orqali badiiy ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy vositalar tizimidir.<sup>1</sup>

Fonetik uslubiyat tushunchasi: Fonetik uslubiyat deganda, asosan, tovush takrorlari, alliteratsiya, assonans kabi vositalarning adabiy matnda muayyan maqsad bilan qo'llanishi tushuniladi. Ular o'quvchiga emotsional ta'sir ko'rsatish, estetik zavq uyg'otish yoki ma'lum bir obrazni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

E.Qilichevning fikricha: "So'z, ibora va so'z formalari singari so'zdagi tovushlarda ham ma'lum uslubiy bo'yoq ifodalanadi. Tinglovchi ham ma'noni tovushlar yordamida qabul qiladi. Shuning uchun so'z tarkibidagi biror tovushning talaffuzda o'zgarishi ( cho'ziq aytilishi, almashtirib qo'llanishi, tushirib qoldirilishi, qavatlanishi ) ma'noga ham ta'sir qiladi."<sup>2</sup>

Fonetik uslubiy vositalar turlari:

1) Alliteratsiya (lot. "litera" so'zidan olingan) she'riy nutqdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlarning takror ishlatilishi, ya'ni nutqda tovushlarning mos kelishi. U takrorning bir ko'rinishi bir ko'rinishi bo'lib, misralar, so'zlar yoki bo'g'inalarning boshi, ohirida bir xil undosh tovushlarning uyg'un holda qo'llanishi asosida asarga ohangdorlik baxsh etadi.

Misol uchun:

1. Tirik-tasvir tushingizni topdingizmi,

Taxtda turib tojingizni topdingizmi.

Tillo to'la tog'ingizni topdingizmi,

Taroziyu toshingizni topdingizmi,

Tundan tonib tongingizni topdingizmi,

Tanlab-tanlab tengingizni topdingizmi?

2. Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing qiz.

Qilur qatlima qasd qayrab -

1) <sup>1</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.

2) <sup>2</sup> Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi.



Qilich qotil qaroshing, qiz. (Erkin Vohidov)

2) Assonans misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligi bo'lib, "Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati"da "aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlik" deb beriladi.<sup>3</sup>

Misol uchun:

"A-O" tovushlari uyg'unligi:

Bundan keng olamga taraldi ilk bor

Ozod odamzotning baxtiyor sasi.

Shu yer deb aytsa, ne mubolag'a bor

Kurrai zaminning tayanch nuqtasi.

3) Gliminatsiya - ikkita bir xil undoshning so'z tarkibida qavatlanishi. Unlini kuchli talaffuz qilish bilan ma'noni kuchaytirib ifoda etish poetik nutqda eng keng qo'llanuvchi fonetik usullardan biridir. Professor A.G'ulomov qo'sh undoshlarning ma'noni kuchaytirish (geminatsiya) talabi bilan yuzaga kelganini va bora-bora qo'sh undoshlilikning ekspressiv ma'nosi yo'qolib oddiy holga kelib qolganini aytadi.

Shoir Erkin Vohidov quyidagi misralarda tovushlar qo'shoqlanishi usulini lirik qahramonning dushmanga nafrati, g'azabini ifoda etish, ma'noni kuchaytirish uchun qo'llaydi:

"Bu yurtga tig' olib kirgan har battol

Tig'ning zarbasidan qaddi bukilg'an.

Sening ostonangda Gitlerning qattol

Vahshiy galalari tutday to'kilgan."<sup>4</sup>

Fonetik uslubiyatning funksiyalari:

- Estetik funksiyasi: Tovush vositalari matnga ohangdorlik, ritm va go'zallik bag'ishlaydi.

- Emotsional ta'sir: O'quvchida muayyan hissiy holatni uyg'otishga xizmat qiladi.

3)<sup>3</sup> Adizova N. Ona tili umummillat mulkidir.

4)<sup>4</sup> Vohidov E. "Nido" dostoni.



- Obraz yaratish: tovush orqali muayyan tasvir yoki kayfiyatni kuchaytiradi.
- Muallif uslubini aniqlash: Har bir adib fonetik vositalardan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

Bundan tashqari nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari ham bor:

1) ASIR, DEVON kabi so'zlardagi tovushlarning notog'ri (asr, divan) kabi talaffuz qilinishi oqibatida nutqda tushunmovchilik yuzaga yuzaga keladi.

2) -da, -qa, (yoki q) kabi bo'g'inlardan keyin yana shunday tovushlar bilan boshlanadigan so'zlarni keltirish nutqiy g'alizlikni keltirib chiqaradi.

**XULOSA:** Fonetik uslubiyat - badiiy matnning ajralmas qismi bo'lib, u orqali muallif o'z g'oyasini yanada ta'sirchan ifoda etadi. Uning samarali qo'llanilishi matnning ohangini, obrazini va hissiy rang-barangligini oshiradi.<sup>5</sup> Shu bois fonetik uslubiy vositalarni o'rganish va to'g'ri tahlil qilish filologlar uchun ahamiyatga ega. "Mahoratli ijodkor har qanday til birligini ulkan ma'no ifoda e'tish vositasi sifatida uzukka qo'yilgan olmosdek tovlantira oladi"- kabi jumla bekorga yozilmagan.

Shoir Erkin Vohidov ham alliteratsiyadan asar jozibasini oshirish, matnni o'quvchining yodida qolishini osonlashtirish uchun, obrazlilikni ta'minlash uchun foydalangan. Muallif "ne?", "nadur?", "nechun?", "lek", "ul", "bul" kabi ayrim tovush o'zgarishi va qisqargan shaklda qo'llangan poetik arxaik so'zlarni qo'llash orqali dostonlariga ajoyib ohangdorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1)Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati
- 2)Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi.
- 3)Adizova N. Ona tili umummillat mulkidir
- 4)Vohidov E. "Nido" dostoni
- 5) Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati

<sup>5</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati